

**Zumrat KENDJAYEVA,**  
*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*  
*tadqiqotchisi*  
*E-mail: [zumradkenjayeva@gmail.com](mailto:zumradkenjayeva@gmail.com)*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori, f.f.d. G.N.Navro'zova tagrizi asosida*

## **TASAVVUFDA SHUKR VA SHUKRONALIK HISSINI TUYISH TUYG'USI HAQIDA**

Annotatsiya

Ushbu maqolada har bir o'tgan kunimizga shukrona qilishimiz, imkon qadar insonlarga har kuni savob ishlarni qilishimiz lozimligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tinch-xotirjam hayotimiz farovon o'tayotgan kunlarimizning qadriga yetish uchun shukr qilib, eng avvalo hushyor bo'lishimiz lozimligini, ana shu ne'matlardan ayrimoqchi bo'lgan turli g'arazli kuchlar, nopoq toifalarning nayranglardan hamisha ogoh bo'lib, ularga munosib javob qaytarish kerakligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, shukr, shukronalik, shukronalik hissi, islom ta'limoti, jamiyat, ma'naviy muhit, ijtimoiy hayot, jamiyat rivoji, ma'naviyat.

### **О ЧУВСТВЕ ТЕРПЕНИЯ В СУФИЗМА**

Аннотация

В данной статье научно проанализировано, что мы должны быть благодарны за каждый прожитый день и каждый день делать людям как можно больше добрых дел. Чтобы ценить дни нашей мирной и благополучной жизни, мы должны прежде всего быть бдительными и всегда быть в курсе проделок различных злонамеренных сил и нечистых групп, желающих лишить нас этих благ, и дать им соответствующий ответ, заявил, что его следует вернуть.

Ключевые слова: суфизм, призательность, призательность, чувство благодарности, исламское учение, общество, эстетика, духовная среда, общественная жизнь, развитие общества, духовность.

### **ABOUT THE SENSE OF PATIENCE IN SUFISM**

Annotation

In this article, it is scientifically analyzed that we should be grateful for every past day, we should do meritorious deeds to people every day as much as possible. In order to appreciate the days of our peaceful and prosperous life, we must first of all be vigilant and always be aware of the tricks of various malicious forces and impure groups who want to deprive us of these blessings, and give them a suitable response, stated that it should be returned.

**Key words:** Sufism, gratitude, gratitude, feeling of gratitude, Islamic teachings, society, aesthetic, spiritual environment, social life, community development, spirituality.

**Kirish.** Xalqimizda shukronalik ilyomonning yarmi deb bejizga aytilmaydi. Inson qo'lidagi ne'matlarga shukr qilar ekan, ne'matlar ziyoda bo'lishiga sabab bo'ladi. Alloh taolo bandalariga mislsiz ne'matlarni in'om etdi. Doimo barcha qadimiy manbalarda, insoniyatni ma'naviyatlari qilishga xizmat qiladigan barcha o'gitlarda shukronalikkada da'vat etiladi. Ularda ne'matlarni nihoyatda ko'pligi, eng buyuk ne'mat-ilyomon, ilm ne'mat ekanligi, banda ibodat qilayotganda halovatni his qilar ekan ilyomonining nuri ziyoda bo'lib borishi, ilmni muhabbat bilan o'qir ekan, bilingki, endi uning ana shu ilmiga bo'lgan rag'batisi oshib borishi aytildi.

Islom ta'limotida ne'matlarga shukr qilish ulug' fazilat va yuqori daraja deb alohida qayd qilingan. Doimo qanoatli, shukrli banda haqiqiy boy bo'lishi, qanoat ila boy bo'lish bor-yo'g'iga ko'nmoq bilan bo'lishi, shukrning qanoatdan ham afzallik jihatli borligi, shukr ne'matning boriga xursand bo'lish, qolaversa, ne'matning ziyoda bo'lishiga sababchi omil ekanligi, har qanday ne'mat shukr bilan ziyoda bo'lishi, Alloh bizga bergeniga shukr qilsak, Alloh yanada ziyoda qilishi, ta'kidlanadi. Banda ikki qoidani bilib olishi kerakligi, ya'ni bir insonga ikki qanot kerak, biri shukr, ikkinchisi sabr deyiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Shukronalik - inson ziynati. Bugungi tinchlik-osoyishtalik, erkin va farovon hayotga shukrona keltirish, uning qadriga yetish xayru barakan yana ziyoda qiladi. Bugungi tinchligimiz ayni Yaratganning bergan ne'matlari shukrona keltirishni o'rgatadi. Shukrona keltirib, qalblari nurga to'lgan insonlar hayoti barchaga ibratdir. Suqrot hukim: "Ne'mat va davlatningiz bor paytda shukr bajo keltirib, boshingizga qiyinchilik tushgan vaqtida sabrni o'zingizga yo'ldosh qiling. Sabr har bir yengillikning ochqichi bo'lib, ne'matga shukr qilish davlat va osoyishtalikning ko'payishiga sabab bo'ladi", deb yozadi.

Xalqimizda shunday maqol bor: "Yo'q narsaga qayg'urmaydigan emas, boriga shukr qiluvchi-donodir". Ammo shuni bila turib noshukrlik qiladiganlar ko'p emasmi? "Qasamki, agar bergen ne'matlarni shukr qilsangiz, albatta, ularni yana ziyoda qilurman. Endi agar kufroni ne'mat qilsangizlar, albatta, azobim ham juda qattiqdir" (Ibrohim surasidan).

"E, odam farzandi! Albatta, sen Meni yod etib va ne'matlarni shukr qilib yursang, Men ehsonimni yana ziyoda qilaveraman. Agar Meni yod etmay, esdan chiqarsang va ne'matlarni shukr qilmay, kufr qilsang, berib turgan in'om va ehsonimni ham to'sib qo'yaman"- deyilgan Qudsiy Hadisida [1].

So'fi Ollohyor shunday yozadilar:

Kishikim, rozilij tominda bo'lsa,

Qilur shukr ajdaho kominda bo'lsa.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Inson Alloh taolonning roziligini istamoq zavqida bo'lsa, ajdaho komida turib ham Tangri taologa shukr aytadi, hamisha Alloh roziligini so'raydi.

O'z holiga shukr qiluvchi odamning qalbida ilyomon nuri porlab turadi. Inson bu nur bilan kamolotga erishadi. Inson fe'lining kengligi, nazarining to'qligi nur bo'lib chehrasiga fazy baxshida etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik yozgan asarlari orqali kitobxonlar muloqot qilishga izn bergenligi uchun Alloh taolloga beedad shukrlar qilaman, - deb yozadilar [1].

Allohning taqdiringa ishonmagan, o'ziga nisbatan haqsizlik qilindi, deya o'ylagan kishining hayoti notinch kechadi. U har doim salbiy hissiyot ta'sirida bo'lib, ishlarni to'g'ri tashkil qila olmaydi.

Inson o‘z nasibasiga rozi bo‘lsa, qo‘lidan keladigan ishlarni mukammal bajarishga harakat qilsa, Allohga eng go‘zal shukr etgan bo‘ladi. Chunki haqiqiy shukr berilgan ne’matlar qiymatini bilib, ularni o‘z o‘rnida ishlatib, Yaratganning rizosi uchun qo‘llamoqdir.

**Tahhil va natijalar.** Teran fikrlaydigan inson hayotni qadrlaydi, turli voqeа-hodisalar qarshisida sobit turadi. Taqdiri azalga rozi bo‘lmoq esa kishini toblaydi, qayg‘u-alamlarni xotirjam yengishga yordam beradi. Abu Xurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambarimiz (alayhissalom): “Allohning bergeniga rozi bo‘l, insonlarning eng badavlati bo‘lasan!” (Imom Termiziy) deb marhamat qilganlar.

Noshukrlik-baxtsizlik keltiradi. Zero, nasibasiga rozi bo‘lmaslik va yetishmovchilikdan shikoyat qilish hech narsani o‘zgartirmaydi, aksincha, dardini yanada oshiradi. Shukr qilish, qo‘lidagi ne’matlardan ko‘ngli to‘lib, ijobiy tuyulgularda bo‘lish insonning ikki dunyosi uchun nihoyatda foydalidir. Masalan, sog‘lom odam “shukrki, soglig‘im yaxshi”, deb qo‘lidan kelgancha mehnat qilib, moddiy qiyinchilikdan qutuladi.

Aksincha, kishi har doim boshqalar bilan o‘zini taqqoslab, “Nega falonchi mo‘l-ko‘l xarajatlar qiladi-yu, men qila olmayman? Men ham ular kabi xarjlashni istayman!” desa, o‘zining ahvolini og‘irlashtiradi. Farzandlarining rizqini qiyadi, hatto qarza botib qolishi mumkin. Unutmaylikki, “Hech qanday imkoniyatim yo‘q”, degan odamlar ham juda ko‘p ne’mat egasidir. Agar sog‘liq, niyatlarini amalga oshirishga vaqt va yoshlik kabi ne’matlarimizga imkon qadar ko‘proq shukr qilsak, Alloh taolo rizqimizni yanada kengaytiradi.

Olimlarning aniqlashicha, shukronalikni his qilish miyaga o‘zgacha stimul berish bilan birga o‘zgalarning intilishlarini anglashga javobgar miya sohalarни ham faollashtiradi. Shukronalik hissi salbiy hissiyorlar, hasad, nasisizm, sinisizm va materializm kabi illatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Shukronalik hissiga yo‘g‘rilgan yurak, vaziyat qanday tus olmasin, ichki mamnunlikni yo‘qotib qo‘ymaydi. Inson qo‘lidagi ne’matlarga shukr qilar ekan, ne’matlar ziyoda bo‘lishiga guvoh bo‘ladi. Nolish, inkor qilish ila qo‘lidagi ne’mat ham yo‘q bo‘ladi. Alloh taolo bandalariga mislsiz ne’matlarni in`om etdi. Faqatgina bir talab, ana shune’matlarga shukr qilishni talab etadi.

“Payg‘ambarlar tarixi” asaridan bitta rivoyat keltiramiz: “Sufyon ibn Uayyna shunday deganlar: Kishi uch xil holatda juda muhtoj bo‘ladi:

1. Tug‘ilgan kunida. U avval onasi qornida edi, endi bo‘lsa, u yegulik yerga tushdi.
2. Vafot etgan kunda. U avval ko‘rmagan odamlarni ko‘radi.
3. Qiyomat kunida. U o‘zini ulkan mahshargohda ko‘radi”[3].

O‘zbekistonda istiqomat qiladigan har bir inson muhtojlarga yordam berishi, qariyalarni asrab-avaylashi va yetim-yesirlarning boshini silashi zarurdir, chunki bizga sharqona mentalitet xosdir.

Islom dinining besh asosiy rukni bor: 1. Imon, ya‘ni shahodat (arab. -guvohlik berish); 2. Namoz o‘qish; 3. Zakot (arab. -poklash, o‘sish, ortib borish); 4. Ro‘za tutish; 5. Haj - qodir bo‘lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka‘bani ziyyarat qilish va ushbu ibodat o‘z ichiga oladigan arkonlarni ado etish.

Zakot - (arabcha, poklash) ehtiyojdan tashqari bo‘lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga etgan badavlat kishilar uchun farz etilgan.

Imom al-Buxoriyning “Jomi” as-sahih” asarida [4] keltirilishicha, kimlarga qanday miqdorda ko‘mak berish mumkin degan savollarga javob topishimiz mumkin. Jumladan:

129-bob. Qancha miqdorda zakot va sadaqa berish mumkinligi to‘g‘risida va butun bir qo‘yni ehson qilgan shaxs xususida.

Ummu Atiyya raziyallohu anho rivoyat qiladirlar: “Nusayba degan bir ansoriya ayolga qo‘y yubordim. Ul ersa, shu qo‘yning go‘shtidan Oysha raziyallohu anhoga yubordi”. Oysha onamiz bunday deydirlar: “Janob Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Biror yegulik narsa bormi?” - deb so‘radilar. “Nusayba yuborgan qo‘y go‘shtidan boshqa hech vaqo yo‘qdir”, -dedim. “Keltirg‘il, sadaqa o‘z o‘rnini topibdir!” - dedilar.”

128-bob. Har bir musulmon sadaqa qilmog‘i lozim, agar sadaqa aylamoqqa hech narsasi bo‘lmasa, yaxshilik qilsin!

Sa‘id ibn Abu Burda otalaridan, otalari esa, o‘z otalaridan quyidagi hadisni eshitgan erkanlar: “Janob Nabiy sallallohu alayhi va sallam: “Har bir musulmon sadaqa qilmog‘i lozim”, - dedilar. Sahobalar: “Yo Nabiyalloh, agar hech narsasi bo‘lmasachi?” - deyishdi. Janob Rasululloh: “Qo‘li birlan mehnat qilib, o‘zi ham manfaatlang‘aydir, birovgaga ham sadaqa berg‘aydir”, - dedilar. Sahobalar: “Agar bunga qurbi etmasa-chi?” - deyishdi. Janob Rasululloh: “Ojizu jabrdiydalarga yordam berg‘aydir”, - dedilar. Sahobalar: “Bu ham qo‘lidan kelmasachi? - deyishdi. Janob Rasululloh: “Yaxshilik qilmoq yo‘liga o‘tib, yomonlikdan qaytsin, ana shuning o‘zi uning sadaqa qilganidir!” - dedilar” [5].

145-bob. Yetimlarga sadaqa qilmoqning vojibligi haqida.

Abu Sa‘id Xudriy raziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: “Nabiy sallallohu alayhi va sallam bir kuni minbarga chiqib o‘tirdilar, biz ham tegralarida o‘tirdik. Janob Rasululloh bizga: “Men vafot etganimidan keyin bu dunyo sizlarga o‘zining go‘zalligi-yu, ziynatlarini namoyon qilmasa, deb qo‘rqg‘aymen”, - dedilar (ya‘ni, “Sizlar ayshu ishratga berilib ketmasanglar, deb qo‘rqg‘aymen”, - dedilar). Shunda bir kishi: “Yo Rasululloh, yaxshilik (ya‘ni, dunyoning go‘zalligi-yu, ziynatlar) ham yomonlik keltirgaydirmi?” - deb so‘radi. Nabiy sallallohu alayhi va sallam jum qoldilar. Odamlar boyagi kishini “Rasululloha gapirimoqqa he hadding bor, ul kishi senga so‘zlamadilarku!” - deb koyishdi. Janob Rasululloh jum qolganlarida biz vahiy kelyapti, deb o‘ylandik. Bir ozdan keyin, Rasululloh sallallohu alayhi va sallam yuzlaridagi terni artdilarda, boyagi kishidan mammun bo‘lgandek chehralari ochilib: “Qani savol bergan kishi?” - dedilar, so‘ng unga qarab: “Yaxshilik yomonlik keltirmag‘aydir. Bahorda unadirgan o‘tlar ichida, okilat ul-xadro‘dan bo‘lak, (hayvon) esa o‘ldiradirgan yokim kasal qiladirgan o‘tlar bordir. Ularni egan (hayvon) qorni shishib, ichi o‘tib, bavl qilib, oftobda cho‘zilib yotg‘aydir. Keyin, ko‘zi ochlik qilib, yana o‘sha o‘tdan egaydir. Mol-dunyo ham o‘sha yashil o‘t-o‘langa o‘xshaydir. Mol-dunyosini miskin, yetim va musofirlarga sadaqa qilib, so‘ng u dunyoga rixlat aylaydirgan musulmon qandog‘ ham yaxshidir!”. Nabiy sallallohu alayhi va sallam yana bunday dedilar: “Birovning molini egri, nohaq yo‘l birlan oladirgan odam qancha esa ham, to‘ymaydirgan mechkayga o‘xshaydir, o‘sha egri yo‘l birlan olingen mol qiyomat kuni uning qallobligiga guvoh bo‘lg‘aydir!”[5].

Qur‘oni karimda bu haqda marhamat qilinib, jumladan: “Agar shukr qilsangiz (va imon keltirsangiz), U sizlar uchun rozi bulur” (Zumar, 7), deyilgan. Ushbu oyatdan ma‘lum bo‘ladiki, Alloh roziliginini topishni istagan har bir banda doimo Unga ham aytib, ne’matlariga shukrona keltirishi, ana shu ikki kalimani takrorlab yurishga odatlanishi zarurdir. Abdulloh ibn Abbas (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (solallohu alayhi va sallam): “Jannatga birinchi bo‘lib kiradigan kishi farovonlik va tanglik kunlarida ham Allohga hamd aytib yuradigan kimsadir” (Tabaroniy rivoyati), deganlar.

Alloh taolo O'zining fazlu karami ila inson zotini aql va idrok sohibi qilib yaratdi va unga behisob ne'matlarni ato qilib, ulardan bahramand qildi. Shu bilan bir qatorda O'zining ne'matlariga shukr aytishga ham buyurib, kalomida shukr qiluvchilarga ne'matlarini yanada ziyoda qilishni aytdi: "Yana Rabbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar) ni eslangiz: "Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukrchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir".

Barchalarimiz Parvardigorning biz bandalarga bergan tansihatlik, farovonlik, baxtu saodat, tinchlik va osoyishtalik kabi ulug' ne'matlariga shukr aysak, qadriga yetsak, shunda Allah ham bizlardan rozi bo'ladi.

Qur'oni Karim va Hadisi sharifga asoslangan tasavvufning Xojagon tariqatida ham insonni komil bo'lib shakllanishidagi omillardan biri shukronalik ekanligin alohida ta'kidlanadi. Abduxoliq G'ijduvoni fikricha haqiqiy taqvodor pok shaxs o'z hayotida ehsonli bo'lishni, yashashida yaxshilik qilishni, xayrli a'molni sodir etishni, hayotda shukronalikni o'z oldiga asosiy ma'naviy-axloqiy maqsad qilib qo'yumog'i lozim. Barchaga yaxshilik qilish, xayrli amolli bo'lish yo'li bilan ma'naviy-axloqiy hayotni yuksaltirish, haqiqiy insoniy hayot darajasiga yetish mumkindir [7].

**Xulosa va takliflar.** Tasavvuf tariqati borasida Xo'jai Jahon Abduxoliq G'ijduvoni yaxshilik qilishda qidalariga ega edilar. Xo'jai Jahon solikning ruhiy ma'naviy bosqichlarining o'n oltinchisi "Shukr va tavakkul" bo'lgan. Hazrat G'ijduvoni: "Bilgilki, ne'matning shukri shundaki, bu ne'matlar uchun Allohnинг farmoniga amal qilishda osiylik bo'lmaydi, tavakkul shundayki banda chorayu tadbirni barcha ishlardan tark qiladi, o'z ishlari chorasini Allohgа topshiradi: kimki Allohgа tavakkul qilsa, bas Alloh uni himoya qiluvchidir" deydi [3]. Allah insonga ko'z berdi, ko'rish quvvatini ato etdi, til berdi, so'zlashishdek buyuk ne'matni ato etdi, eshitish, bir so'z bilan aytganda ham buyuk olam, ham kichik olam qilib yaratdi. Bu ne'matlarga shukr qilib faqat yaxshilik uchun xizmat qilish kerakligi uqtiriladi. Saxovat, ya'ni yomonlikka ishlatsa gunohga qolishi uqtiriladi.

Abdulxoliq G'ijduvoni Qur'oni Karim va hadisi sharifga asoslangan tasavvuf ta'limotidagi inson ruhiy kamolotining maqomlaridan biri bo'lgan shukronalikni chuqur o'rgangan va shu haqida qimmatli meros qoldirgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 22 декабрь 2017 йил, 15 6.
2. Тохир Малик. Танланган асарлар. Одамийлик мулки. З-китоб. Тошкент. "Sharq" HMAK. 2010.690 6.
3. Muhammad Sayyid Tantoviy. Payg'ambarlar tarixi. Tarjimon: Ziyovuddin Rahim. Muhamarrir: Alisher Nazar. -Toshkent, 2002.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih (1-jild). Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.
5. Deyl Karnegi. Betashvil yashash siri. -Toshkent: Davr press" NMU, 2017.
6. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. -Тошкент: Шарқ, 2004. -Б.372.
7. Ҳадис. -Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1 том. Ал-Жомиъ Ас-Саҳиҳ. (Ишонарли тўплам). 6-боб. Б-15.